

SOVET HOKIMIYATINING XX ASRNING 20-30-YILLARIDA O'ZBEKISTON AMALGA OSHIRGAN DINIY SIYOSATI.

Mirzayev Akmal Arifjonovich

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи erkin tadqiqotchisi.

Annatatsiya: Sovetlarning Turkiston o'lkasida diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan yuritgan siyosati 1917-1924-yillarda beqarorlik va ishonchsizlik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Bu esa o'lkada diniy omilning kuchli ta'siri tufayli oshkora ateistik siyosatni olib borishiga yo'l qo'yagan. Biroq bu jarayon uzoqqa cho'zilmay, 1924-yilning oxiridan boshlab diniy ulamolarga, islom muassasa va tashkilotlarga qarshi ochiq kurash yo'liga o'tila boshlandi.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyati, O'zbekiston MIQ, Islom dini, ateistik siyosat, Xudosizlar jamiyati, vaqf mulklari, qatag'on, aksilinqilobiy targ'ibot, "Ateist" va "Bezbojnik" gazetalari.

Islom dini asrlar davomida o'zbek xalqining asosiy diniy e'tiqodi sifatida mavjud bo'lgan. O'zbek xalqining urf-odatlari, an'analari islom dinining odat va marosimlari bilan uzviy ravishda bog'lanib ketgan. Shariat va odat xalqimizning turmush tarzi va hayotini belgilagan. Buni yaxshi bilgan sovetlar o'zlarining hokimiyatining dastlabki yillaridanoq Turkiston mintaqasida asrlar davomida mavjud bo'lgan bu diniga qarshi kurasha boshladilar. Ularning kurashlari dastlabki yillarda ochiqchasiga bo'lmasada, keyinchalik oshkora va terror usulida amalga oshirila boshlandi. Turkistonda sovetcha tartiblar o'rnatilgan dastlabki kunlardanoq, hukumat soxta, "balandparvoz" deklaratsiyalar e'lon qilish orqali aholini o'z tartiblariga ijobiy munosabatda bo'lishini maqsad qilgan edi. Sovet hukumati vujudga kelgan dastlabki kunlarida ikki tarixiy hujjat aynan shu maqsadda qabul qilingan. 1917-yil 2-noyabrda "Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi" va shu yilning 20-noyabrida "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" murojaatnomasi e'lon qilindi. Unda barcha fuqarolarning tengligi, boshqa xalqlarning esa Rossiya Federatsiyasidan xattoki ajralib chiqishi va mustaqil davlat tuzish huquqi, milliy, diniy imtiyozlar va cheklashlarni bekor qilish kabilar rasmiy ravishda e'lon qilingan edi. Murojaatnomada "Rossiya musulmonlari, Volgabo'yи Qrim tatarlari, Sibir va Turkistonning qirg'iz va sartlari, Zakavkaziyaning turk va tatarlari, Kavkazning chechen va tog'liliklari... sizning din va urf-odatlaringiz, sizning milliy va madaniy muassasalariningiz bundan buyon erkin va daxlsiz deb e'lon qilinadi. O'z milliy turmushingizni

erkinlik bilan baxuzur tuzaveringiz. Shunday qilishga xaqlisiz, o'z mamlakatingizga o'zingiz xo'jayin bo'lmoq'ingiz lozim! O'z turmushingizni ko'nglingizdagidek va o'z xoxishingizga muvofiq qilib o'zingiz tuzmog'ingiz lozim, siz shunday qilishga haqlisiz, chunki sizning taqdiringiz o'z qo'lingizda..."99 deyilgan edi. Biroq bularning bari amalda o'z aksini topmadи, aksincha bo'ldi. Sovetlarning Turkiston o'lkasida diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan yuritgan siyosati 1917- 1924-yillarda beqarorlik va ishonchsizlik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Bu esa o'lkada diniy omilning kuchli ta'siri tufayli oshkora ateistik siyosatni olib borishiga yo'l qo'yman. Biroq bu jarayon uzoqqa cho'zilmay, 1924-yilning oxiridan boshlab diniy ulamolarga, islam muassasa va tashkilotlariga qarshi ochiq kurashga o'tila boshlandi. Sobiq Turkiston ASSR, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlaridan iborat bo'lgan yangi subyekt - O'zbekiston SSR tashkil topganidan keyin "dinga qarshi tashviqot va turmush xurofotlariga qarshi kurash", partiya va komsomol yacheykalarida dinga qarshi bevosita targ'ibotni yo'lga qo'yish uchun vaqt keldi, deb hisoblash bosqichiga o'tildi. 100 1920-yillarning birinchi yarmi boshlarida Markazda va O'zbekistonda dinga qarshi matbuot organlari va maxsus tashkilotlarining tuzilishi, "xudosizlik" uchun kurash harakatlari ommaviy tus oldi. 1922-yilning oxirlaridayoq markazda dahriylik siyosatini targ'ib qiluvchi "Ateist" va "Bezbojnik" gazetalari chop etila boshlandi. SSSRda ateistik harakat avj olib, u davlat siyosatining uzviy qismiga aylandi. Ushbu siyosat yuzasidan joylarda ko'plab "Xudosizlar jamiyat" tuzildi. Bu jamiyatlar mavjud diniy e'tiqodga, uning peshvolariga qarshi ateistik kurash olib bordi, uning joylardagi tashkilotlari zo'r berib faoliyat ko'rsatdi. Xudosizlikka doir maxsus gazeta va jurnallar nashr qilindi. Mazkur yillar davomida sovet hukumati tomonidan o'zbek xalqining olis asrlarga borib taqaluvchi moddiy va ma'naviy madaniyati durdonalari, mакtab, madrasalarga qarshi zo'rlik yo'li bilan kurash olib borildi. Islam dini va musulmon ruhoniylari kamsitilib, eski usuldagи maktablar "eskilik va xurofot uyasi" sifatida ta'riflandi. Turkistonda azaldan maorif va madaniyatning moddiy tayanchi bo'lgan vaqf mulklarini ham sovet hukumati asta-sekin cheklay boshladi. 1920-yil 17-noyabrda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti "Rossiya Federatsiyasi Turkiston Respublikasida yerdan foydalanish haqida" gi 353-sonli Nizomiga asosan vaqf yerlarini davlat tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi qarorini e'lon qiladi. Shu tariqa vaqf mulklari masalasi diniy muassasalar ixtiyoridan butunlay tortib olinadi. Faqat qarorda masjidlarga tegishli bo'lgan vaqf yerlariga vaqtincha yer-suv islohotini o'tkazish jarayoniga qadar tegmaslik uqtiriladi. 101 1924-yilgacha faqat masjidlarning vaqf mulklari

qolgan edi. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasini va Xalq Komissarlari Sovetining 1928-yil 22-sentyabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida vaqf mulklarini bekor qilish to'g'risidagi Sovet hokimiyatining diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan respublikada dinga qarshi amalga oshirgan ishlardan so'ng, keyingi yillar davomida tarixiy obidalar bo'lmish minglab madrasa, masjid, maqbara, xonaqoh binolari qarovsiz qolib ketdi. Diniy boshqarmaning tugatilishi va madrasalar faoliyatining to'xtatilishi bilan bilimli diniy ulamolarni yetkazib berish, islom shariatini to'gri yo'lga qo'yish kabi muhim masalalarga bo'lgan e'tibor yo'q qilindi. 1927-yil O'zbekiston SSR Kompartiyasining III syezdida "Din va dinga munosabat" yuzasidan 2 ta qaror qabul qilinib¹⁰⁵, ushbu qarorlarda dinga qarshi targ'ibotni yanada kuchaytirish, ulamolarni ta'qib qilish va qat'iy nazarat ostiga olish mazmunidagi fikrlar bayon qilingan edi. Ushbu qarorlarda dinga qarshi tashviqot masalasi keskin qo'yilgan bo'lib, avvalo, "faollar ichida diniy-maishiy urf-odatlarga (xatna to'yi, diniy dafn marosimlari, nikoh o'qitish va boshqalarga) qarshi partiya ichida keng kurash olib borish lozim... Yerli xalq orasida ham, shuningdek, yevropaliklar ichida ham dinga qarshi tashviqotni avj oldirish zarur deb hisoblansin maktab, klub, qizil choyxona, dehqonlar uyi, agronomiya markazlari va "Xudosizlar jamiyati"ning yacheykalarini dinga qarshi tashviqotning markaziga aylanishi zarur"¹⁰⁶ , kabi ochiqdan-ochiq qarash va qatag'onga da'vat qiluvchi fikrlar keltirib o'tilganligi ham dinga qarshi kuch bilan kurashilganligini ko'rsatadi. Quyidagi ma'lumotga ko'ra SSRda "Xudosizlar jamiyati" a'zolari, muhbir, dehqon va ishchilar hamda uyushma faollarining soni 1920-yilda 100 ming kishini, 1929-yilda 700 ming kishini, 1932-yilga kelib esa 5,5 mln. kishini tashkil qilgan. Tashkilotga 2 milliondan ortiq yoshlar jalb qilingan.¹⁰⁷ Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, partiya organlari, ayniqsa yoshlar orasida dinga qarshi tashviqot-targ'ibot ishlari keng ko'lamda olib borilgan. O'zbekiston SSR Kompartiyasining III syezdi Respublika miqyosida din va diniy muassasalarga qarshi ommaviy ochiq kurash hamda qatag'on davrini boshlab berdi. Shuningdek 1927-yil 13-15-iyun kunlarida Samarcand shahrida O'zbekiston SSR Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining VI plenumi bo'lib o'tadi. Plenumda "Ruxoniylar va maktab to'g'risida"gi masala muhokama qilinib, unda eski usul maktablarni yopish, ruxoniylarni quvg'inga olish, maorif sohasida ateistik bilimlarni rivojlantirish masalalari belgilab olindi¹⁰⁸. Plenum qarorida ruhoniylar va dindorlar "soviet tizimiga dushman bo'lgan eng asosiy kuch" deb ta'kidlangan va ular qattiq ta'qib ostiga olindi. Dinga qarshi keskin kurash bir necha yo'naliislarda olib borildi. Bular xotin-qizlarni erkaklar bilan tenglashtirish masalasi, maktab va o'quv yurtlarida ateistik tarbiyani

kuchaytirish, arab yozuvidan lotin alifbosiga o'tish va boshqalar edi. 1927-yili xotinqizlarni ozodlikka chiqarish "Hujum" kampaniyasi davrida dindorlarni xurofot va eskilik tarafdori sifatida ta'qib qilish yanada avj oldirildi. Bunday ateistik harakatlarni ommaviylashtirish maqsadida 1929-yil 10-11-iyun kunlari Moskvada bo'lib o'tgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasining II syezdi Markaz va uning Ittifoqdagi barcha respublika bo'limlarini "kurashchan xudosizlar" deb nomlashga qaror qiladi¹⁰⁹. Dinga qarshi keskin kurash targ'ibotini yanada kengaytirish maqsadida oliy o'quv musassasalarida ateist tashviqotchilarni tayyorlaydigan o'quv kurslar ochila boshladi. Jumladan 1929-yildan Samarqand Oliy pedagogika instituti va Toshkent O'rta Osiyo Kommunistik universiteti qoshida dinga qarshi qaratilgan tashviqotchi-ateistlar tayyorlaydigan bir yillik o'quv kurslari ochildi¹¹⁰. XX asrning 30-yillarida Markazning dinga qarshi olib borayotgan ateistik siyosati hayotiy zaruriyat ekanligini isbotlash maqsadida, davlat va hukumat rahbarlari, ziyorolar va ilmiy jamoatchilik daxriylik targibotiga keng jalb qilindi. Ushbu harakatda ishtirok etmagan kishilarga nisbatan tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik va yo'li bilan obro'- e'tibori hamda egallab turgan lavozimlaridan mahrum qilish choralar qo'llanildi. Aynan shu yillar mobaynida ateistik ruhdagi adabiyotlar keng ko'lamda nashr etila boshlandi. Misol uchun 1939-1940-yillar davomida o'zbek tilida 470 ming nusxada 30 xil nomdag'i dinga qarshi qaratilgan adabiyotlarning nashr etilishi, 1940-yilning birinchi yarim yilligida respublika gazetalari sahifasida 170 ta maqolaning mazkur mavzuga bagishlanganligi¹¹¹ bu siyosatning naqadar keng miqyosda olib borilganligini ko'rsatadi. Sovet hokimiyati o'zining salbiy natijalarini bergan islohotlarini o'tkazar ekan, jamiyatda kishilarining islomiy ma'naviyat ta'sirida asrlar osha yashab kelayotgan xalqning his-tug'ularini oyoq osti qildi. Bunday ta'qib va tazyiqdan diniy ulamolar ko'proq jabr ko'rdi. Sovet hokimiyatining milliy o'lkalardagi zo'ravonlik siyosati oxiroqibat bu rejimga qarshi xalq ommasining uzoq vaqt davom etgan qurolli harakatini keltirib chiqargan. Sovet tuzumiga muxolifatda bo'lgan kuchlar hamda sovet davri tarixi adabiyotlarida "aksilinqilobchilar" deb baholangan tashkilotlar faoliyati asos qilinib, diniy ulamolar tazyiq ostiga olindi. Ulamolarga "bosmachilarga ko'maklashgani, bosmachilarni yashirgani, bosmachilikda ishtirok etgani, ular bilan sherikchilik qilgani, josusligi, aksilinqilobiy tashkilotlarga a'zo bo'lGANI, aksilinqilobiy targ'ibot yuritgani, terrorchiligi, bosmachilarga g'oyaviy rahnamolik qilgani" kabi ayblar qo'yilib, jazoga tortish ommaviy tus oldi. Mulla, shayx, qozi, imom, a'lam va mutavallilar boy, qulqoq bo'lGANI yoki ularning yirik zamindorlarga xayrixohligi ham qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan.

Aksilinqilobiy targ'ibot yuritgan, terrorchi, ommaviy chiqishlarda ishtirok etgan kabi o'nlab ayblar bilan butun O'rta Osiyo qamoqxonalarda 1930-yil iyuniga qadar 51 nafar ulamo aynan bosmachilarga sheriklikda, 59 ta ulamo joususlikda, 1 ta ulamo norasmiy chegaradan o'tishda va 1 ta ruhoniy soxta pul chiqarishda ayblanib, tergov qilingan¹¹². 1930-yillarning oxirlaridan boshlab, to'g'ridan to'g'ri dindor bo'lgani uchun, diniy marosimlarda qatnashgani hamda unda xizmat ko'rsatgani, daromad olgani uchun ham ta'qib ostiga olish avj oldirilgan. Jumladan, Abduolim Tog'ayev degan shaxs paxta yig'im terimi davrida diniy marosimlarni, Ramazaon hayitini o'tkazish orqali paxta yig'im-terimi muddatini atayin uzaytirganlikda ayblangan. U "millatchi unsur, bosmachilar malayi, mulla, guruh tuzib diniy yig'ilishlar o'tkazib turishi" bahonasi bilan otuvga hukum qilinadi¹¹³. XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarda diniy ulamolar "bosmachilik"ka ko'maklashgani, ularni yashirgani, aksilinqilobiy harakatlarda ishtirok etgani, sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot yuritgani, kolxozlar tuzishga qarshi chiqqani, qo'poruvchilik qilgani, diniy marosimda qatnashib soliq to'lamagani, yashirin tashkilotlarda ishtirok etganligi, diniy marosimlarni boshqargani kabilar ro'kach qilinib, qatag'on girdobiga tortildi. Sovet hokimiyatining yuqorida keltirib o'tilgan din va unga qarshi kurash borasida amalga oshirgan siyosati aholi orasida keyinchalik diniy e'tiqodning susayishi va diniy savodsizlikni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Lekin dinga qarshi harakatlar qanchalik kuchaymasin odamlar o'z diniy etiqodlariga yashirincha amal qilaverdilar. O'sha davrdagi hukumat tomonidan qilingan cheklovlarga qaramasdan xalqimizning o'z dinini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yo'q qila olmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov Q., Xaydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 y.). –Toshkent. Universitet, 2002.
2. O'zbekiston Kommunistik partiyasi syezdlarining rezolyusiya va qarorlari. 1-tom.-Toshkent: 1957.
3. Solmonov Axmadjon. O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix xaqiqati (Matn) : monografiya A.Solmonov. – Toshkent. Tafakkur, 2015.